

## **TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASH DARAJALARINI TADQIQ QILISH USULLARI.**

**Saydullaev Djamoliddin Yaxshiboevich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi*

Ilmiy-amaliy adabiyotlar tahlili va o‘z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda talabalarda ilmiy dunyoqarash xususiyatlarini psixologik jihatlari va uning shakllanganlik darajalarini tadqiq qilishni atroflicha empirik jihatdan o‘rganishni taqozo qilmoqda.

Eng avvalo, oliy o‘quv yurti talabalarida ilmiy dunyoqarash xususiyatining ijobjiy va salbiy sifatlarini shakllanganlik darajalari va psixologik omillari, mezonlari ko‘lamini aniqlash va ularning har birini alohida tahlil qilish uchun tegishli metodlarni tanlash va ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixologik tuzilmalarga asoslanib, o‘z tadqiqtomizda ilmiy dunyoqarashning mezonlari tizimi ishlab chiqildi va shu tizim asosida talabalarda ilmiy dunyoqarash rivojlanish darajalarini o‘rgandik, tahlil qildik va tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Avvalo ta’kidlashimiz lozimki, ilmiy tadqiqtomiz bir necha bosqichlarda amalga oshirildi:

*Birinchi bosqich:* talabalarda ilmiy dunyoqarash motivini baholash, dinamikasini aniqlash va tadqiq qilish, maqsadga mos metodikalarni tanlash va ularning o‘zaro uyg‘unligini ilmiy tahlil qilish. Ushbu rejani amalga oshirish maqsadida talabalardagi ilmiy dunyoqarashni tadqiq qilishga mo‘ljalangan to‘rtta metodikadan foydalandik. Ular to‘lig‘icha 1-8-ilovalarda keltirildi, ularning metodologik asoslari dissertatsiya matnida keltirilgan.

*Ikkinci bosqich:* Ushbu bosqichda biz talabalardagi ilmiy dunyoqarash bilan talabaning intellekti o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash maqsadida qo‘srimcha maxsus metodikalar yordamida izlanishlar olib bordik.

*Uchinchi bosqich:* Uchinchi bosqichda esa talabalar ilmiy dunyoqarashini umumiy holda o‘rganib, uni shakllantiruvchi va unga ta’sir qiluvchi omillarni, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlashga bag‘ishlangan empirik tajribani o‘tkazdik.

*To‘rtinchi bosqich:* Talabalar shaxsi shakllanishida ilmiy dunyoqarash darajasini nechog‘lik o‘rnini va ahamiyati borligini aniqladik. Bundan ko‘zlangan maqsad trening dasturlarini shakllantiruvchi maqsad va sabablarni yaratish bo‘ldi.

*Beshinchi bosqich:* milliy muhitdan kelib chiqib talabalardagi ilmiy dunyoqarash darajasini shakllantirish maqsadida treninglar dasturini ishlab chiqish.

*Oltinchi bosqich:* trening dasturi samaradorligini baholash maqsadida uni tashkil etishdan oldin va keyingi natijalarni o‘zaro taqqoslash va natijaviyligini

**Ta’lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot. Termiz 26-27 aprel 2024 y**  
aniqlash maqsadida empirik natijalar tahlil qilindi.

**Yettinchi bosqich:** Eksperiment natijalari, trening natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Sakkizinch bosqich:** Talabalarda ilmiy dunyoqarash darajasini shakllantirishga shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlari.

**To‘qqizinch bosqich:** Olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash metodlari, ya’ni, empirik ma'lumotlarning ishonchlilik va validlik darajasini aniqlash, miqdoriy ma'lumotlarni statistik tahlil asosida maxsus kompyuter dasturi asosidakorrelyatsion yaqinlikni aniqlash usullaridan, natjalarning o‘rtacha arifmetik qiymati va disspersiyani topish formulalaridan (Styudentning – t muqarrarlik mezoni, Kolmogorov-Smirnov Z mezoni, Spearman mezoni, Mann-Uitni U mezoni, Kruskal Uollis mezoni, bir omilli dispersion tahlil mezoni, Uilkokson mezoni,  $\chi^2$  mezoni koeffitsentini hisoblash metodlari) foydalanildi.

Quyida biz dissertatsion ishimiz davomida qo’llagan barcha metodikalarning nomlarini keltiramiz:

1. G.Gardner “Intellekt tiplarini aniqlash metodikasi”;
2. “Kreativlikni aniqlash metodikasi” (N.F.Vishnyakova);
3. Shaxsnинг ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish so‘rovnomasi;
4. Talabalar mustaqil fikrlash darajalarini o‘rganish ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi.

### 1-jadval

**Talabalardagi ilmiy dunyoqarash qobiliyatları aniqlash so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)**

Komponentlar	Eksperimentdan oldin			
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	t	P
Ilmiy fikrlash	10,3	11,1	2,8	0,05
Tanqidiy fikrlash	12,8	12,9	2,4	0,05
Mustaqil fikrlash	12,6	12,8	2,5	0,05
Amaliy fikrlash	11,2	11,9	2,1	0,05

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01, \*\*\*-p<0,001

Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonining sifati va samaradorligi faqatgina ta’limni tashkil etish shakllari va vositalarigagina emas, balki talabalarning individual xususiyatlariiga holatlariga bevosita bog‘liqdir. Endi

tadqiqotimizda ilmiy rahbarimiz bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus so‘rovnoramizdan olingen natijalarning dastlabki tahlillari bilan tanishtiramiz.

Biz mazkur so‘rovnoma orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashini qay darajada shakllanganlik darajasini o‘rganishni maqsad qilib oldik. Chunki, talabalardagi mazkur komponentlarni aniqlash orqali ularning faoliyati uchun muhim bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot muammosiga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan so‘rovnoramiz orqali biz talabalardagi ilmiy dunyoqarash jarayonlarini o‘rgandik. Ushbu omillar talabalarning o‘quv faoliyatlarini tartibga soluvchi mexanizmi va dinamikasini belgilab beradi. Talabalar orasida ilmiy fikrlash, yangicha g‘oyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarning bir-biridan farqi va faoliyatda namoyon bo‘lish darajalarini aniqladik. Empirik tadqiqotlarning dastlabki bosqichi tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazildi. Tanlangan yangi g‘oyalarni amalga oshirish yo‘li sifatida tavsiflanadigan “ilmiy fikrlash” uslubi ustunlik qilishi aniqlashtiriladi. Talabalar o‘rtasidagi bunday fikrlash uslubi amalda haqiqiy innovatsion o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi, bu davrda yangi g‘oyalarni shakllanadigan, gipotezani ta’riflash, muammoni hal qilish yo’llarini qidirish, uni hal qilish rejasini tuzish va tadqiqotni hal qilish uslubini ishlab chiqish va rivojlanadigan davr sanaladi.

So‘rovnoramadagi navbatdagi “tanqidiy fikrlash” omili bo‘lib, ushbu omil bo‘yicha olingen yuqori natijalar darajada ekanligi qayd etildi. Bunday toifadagi talabalarda ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va adekvat qarorlar qabul qilish, shuningdek o‘z fikrlarini shakllantirish va o‘z dunyoqarashini kengaytirish kabi xususiyatlarni namoyon qiladi.

Tadqiqotimizda qo‘llanilgan so‘rovnoramizing keyingi “mustaqil fikrlash” omili barcha vazifalarni bajarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi, biroq, aqliy faoliyatni shakllantirish boshqalarga qaratilgan ijobiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday talabalarda o‘quv va ilmiy faoliyatni o‘zaro muvofiqlashtirish, uni samarali tashkil qilish, kasbga yo‘naltirish kabi omillar natijasida amalga oshiriladi.

So‘rovnoramadagi eng past ko‘rsatkich “Amaliy fikrlash” omilida kuzatildi. Bunday omil talabalarda yangi g‘oyalarni shakllantirish turli sohadagi muammolarni yechishda erishishda va ilmiy farazlarni tasdiqlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari ushbu omil muammolarni aniqlash, qaramaqarshiliklarni bartaraf etish bilan tavsiflanadi, shuningdek, ilmiy farazlar, taxminlarni ilgari surish, muammoning mazmun mohiyati tushunish istagi, hamma narsaning tubiga tushish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalarimiz talabalar ilmiy dunyoqarashiga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarning o‘rnini isbotladi va ularda ijodiy faoliyat motivatsiyasi mavjudligi ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyati ko‘rib

chiqildi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi bizningcha, kelajakda davlatimiz taraqqiyotini yanada yuksak pog‘onalarga eltuvchi ruhan kuchli, ma’naviy barqaror bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi. Shunday qilib, biz tanlagan metodikalar eng avvalo, obyekтивлilik, validlilik, ishonchlilik talablariga javob berishi bilan birgalikda tanlangan ob’ektning anchagina katta ekanligi, ko‘plab metodikalarning juda katta auditoriyalarda dastlabki sinovlardan o’tkazilganligi, ob’ektning reprezentativliligi, ya’ni, tadqiqot maqsadiga aynan javob berishi bilan xarakterlanadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Абульханова-Славская К.А. Социальное мышление личности: проблемы и стратегии мышления // Психологический журнал. - 1994. № 4. - С. 35-39.
2. Петровский А.В. Проблема развития личности с позиций социальной психологии // Вопросы психологии. 1984. № 4, С 15-29.
3. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Избранные труды. - М.: Наука, 1995. - 349с.
4. Матюшкина Е.Я. Учебный стресс у студентов при разных формах обучения.

